GEMORRAGIK VASKULITDA ALLERGIK HOLATLARNING UCHRASH CHASTOTASI VA KLINIK XUSUSIYATLARI

Rahmatov Umidjon Raxim o‘g‘li
Muhammadiyeva S.M. – ilmiy rahbar
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Dolzarbligi: Gemorragik vaskulit (GV) yoki IgA-vaskulit — bu kichik qon tomirlarning yallig‘lanishi bilan kechuvchi immun-kompleksli kasallikdir. So‘nggi yillarda GV rivojlanishida allergik reaksiyalar va immun tizim disbalansining roli tobora ko‘proq e’tiborni tortmoqda. Allergenlar (dori, oziq-ovqat, infeksiya) ta’sirida IgA immun komplekslarining qon tomir devorlariga cho‘kishi natijasida yallig‘lanish jarayoni yuzaga keladi. Bugungi kunda GV bilan og‘rigan bemorlarning 40–50% da allergik fon aniqlanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: gemorragik vaskulit bilan og‘rigan bemorlarda allergik holatlarning uchrash chastotasini va klinik kechishiga ta’sirini o‘rganish.

Usul va uslublar: Tadqiqotda 50 nafar GV bilan og‘rigan bemor va 25 nafar sog‘lom shaxs ishtirok etdi. Klinika va laborator tahlillar (IgE, IgA, ESR, CRP) hamda anamnestik so‘rov o‘tkazildi. Sitokinlar (IL-4, IL-6, TNF-α) darajasi baholandi.

Natijalar: GV bilan og‘rigan bemorlarning 42% da allergik reaksiyalar aniqlangan. Dori allergiyasi 24%, oziq-ovqat allergiyasi 18% ni tashkil etdi. Umumiy IgE darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1,7 barobar yuqori bo‘ldi. IL-4, IL-6 va TNF-α ko‘rsatkichlarining oshishi allergik fon bilan bog‘liq ekanligi qayd etildi. Allergik fon mavjud bemorlarda kasallik og‘irroq kechdi va qaytalanishlar ko‘proq kuzatildi.

Xulosa: Gemorragik vaskulitda allergik mexanizmlar kasallik patogenezida muhim o‘rin tutadi. IgE va sitokinlarning oshishi immun-allergik javobni tasdiqlaydi. GV bemorlarida allergik fonni erta aniqlash va tuzatish kasallikning kechishini yengillashtiradi hamda davolash samaradorligini oshiradi.